

QO‘QON XONLIGIDA QOZILIK LAVOZIMIGA TAYINLASH MASALALARI

Bahodirova Mubinaxon Bunyodjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti 1-bosqich talabasi
bahodirovamubina741@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘rta Osiyo, xususan Qo‘qon xonligi davrida qozilik institutining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Qozilarning shariat asosida sud, prokuror va notarius vazifalarini bajargani, davlat boshqaruvidagi roli hamda vakolatlari bayon etilgan. Shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda amalga oshirilgan ma‘muriy va sud islohotlari natijasida qozilar faoliyatida yuz bergan o‘zgarishlar tahlil qilingan. Matnda tarixiy hujjatlar, farmonlar va amaliy misollar orqali qozilik tizimining huquqiy va ijtimoiy mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qozilik instituti, Qo‘qon xonligi, Turkiston, Rossiya imperiyasi, sud tizimi, shariat huquqi, ma‘muriy boshqaruv, Kaufman siyosati, general-gubernatorlik, qozilar va muftiylar, diniy ulamolar, tarixiy hujjatlar, farmonlar, huquqiy islohotlar, mustamlaka davri.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ma‘muriy boshqaruv tizimi bilan bir qatorda sud tizimida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Tarixiy jihatdan shakllangan boshqaruvda hokimlar va hududiy rahbarlar asosan xon sulolasi vakillari, ularning yaqinlari hamda yuqori tabaqa va nufuzli qabila yetakchilari orasidan tayinlangan. Masalan, Xudoyorxon hukmronligi davrida (1853–1858-yillar) yettita beklik uning o‘g‘illari va yaqin qarindoshlari tomonidan boshqarilgan. Hokimlar esa o‘z navbatida viloyat hududlarini o‘z qarindoshlari va farzandlari o‘rtasida taqsimlagan.

Qo‘qon xonligining ma‘muriy tuzilmasida beklar (hokimlar) va ularning qarorgohlari muhim o‘rin tutgan. V.P. Nalivkinning ta‘kidlashicha, xonlik hududi beklklarga bo‘lingan bo‘lib, ular rasmiy ravishda beklar tomonidan boshqarilgan.

Bekliklar o‘rtasida deyarli nizolar kuzatilmagan, chunki ularni boshqaruvchilar xonning yaqin qarindoshlari bo‘lgan. Har bir beklik aminlik yoki oqsoqolliklardan tashkil topib, ular bir yoki bir nechta mahallalarni o‘z ichiga olgan. Viloyatdan yig‘ilgan soliqlar esa asosan mahalliy boshqaruvni va harbiy kuchlarni ta‘minlashga yo‘naltirilgan.

Soliqlarning muayyan qismi natura ko‘rinishida, ya‘ni g‘alla, non va boshqa mahsulotlar shaklida yig‘ilgan. Shu sababli mansabdorlar o‘z maoshlarini ko‘pincha don, bug‘doy, kiyim-kechak va pul tarzida olganlar. Ayrim yuqori lavozimli shaxslarga esa xon yoki hokim qarori bilan ma‘lum hududdan soliq yig‘ish huquqi berilgan. Ba‘zan bitta yirik qishloq bir necha amaldor o‘rtasida taqsimlangan.

Bundan tashqari, xonga yiliga bir yoki ikki marotaba qimmatbaho sovg‘alar, jumladan kiyim-kechak va pul taqdim etish odati mavjud bo‘lgan. Bu odat ko‘pincha xonning viloyatlarga tashrifi chog‘ida amalga oshirilgan³.

Qo‘qon xonligida ham asosiy sud organi qozi hisoblanib, ularni xonning o‘zi tayinlar edi. Qozilar ham diniy, ham fuqarolik ishlarini ko‘rgan. Ular hatto o‘lim hukmini chiqarishga ham huquqli bo‘lgan. Xonlikning bosh qozisi “Qozi ul-kuzzot” (qozilar qozisi, ya‘ni adliya vaziri) deb nomlangan. Bundan tashqari, “Qozi kalon” (poytaxtda va viloyat markazlaridagi qozilarning va qozixona ishlarining ustidan nazorat qilgan), “Qozi mutlaq” (bosh qozi), “Qozi askar” (qo‘shin qozisi), “Qozi rais” (qo‘shinlarda askariya muftisi bergan fatvolarning ijro etilishi ustidan nazorat qilgan) va boshqalar faoliyat yuritgan.

Qo‘qon xonligida qozi kalon xizmati uchun yiliga 800 botmon g‘alla va 1200 tanga pul olgan. Diniy va sud tizimiga aloqador lavozimlarda bo‘lganlar davlat tomonidan belgilangan maosh va turli xayr-ehsonlar hisobidan kun ko‘rgan.

³ Karimov Kaxramon Sadikovich.

Bunday daromadlarga nikohona, tarakona (taraka qilingan mulkdan), meros haqi va boshqa xil to‘lovlar kirardi⁴.

Qo‘qon xonligi mahalliy boshqaruv tizimida va boshqa xonliklardagi kabi qozilar muhim rol o‘ynagan. Qozilar zimmasiga fuqarolar arz va shikoyati va talablari asosida shariat qonunlariga asoslangan holda sudlov ishlarini tashkil etish yuklatilgan. Qo‘qon xonligida viloyat va shahar qozilari, Buxoro va Xiva xonliklaridan farqli ravishda — xon yorlig‘iga binoan shahar hokimlari tomonidan tayinlangan. Ko‘p hollarda qozilarni tayinlashda ularning qozilar avlodidan ekaniga ham e‘tibor berilgan. Mahalliy boshqaruv tizimida faoliyat yuritgan qozilar bu boshqaruv tizimining tepasida turgan hokimlar, beklar oldida javobgar edi. Qozilar hukmidan norozi fuqaro oliy hukmdor xonga va hokimga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan⁵.

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olish jarayonida diniy ulamolar bilan yaqin aloqalar o‘rnatishga harakat qilgan. Ular diniy mansabdorlarning bo‘ysundirilishini go‘yoki qozi va muftiylar ko‘rsatmasi asosida amalga oshirilgandek ko‘rsatishga intilgan. Aslida esa bu jarayon to‘liq Kaufman buyrug‘i asosida olib borilgan. Shu bilan birga, u mahalliy musulmon muassasalari bilan avval mavjud bo‘lgan rasmiy aloqalarni ham bekor qilgan. Turkiston hududining boshqaruvi general-gubernatorlik tasarrufiga o‘tkazilgani “Nizom”ning dastlabki boblaridayoq belgilab qo‘yilgan edi.

Toshkent aholisi tomonidan Orenburg general-gubernatori Krijanovskiye tarjimon Bekchurin orqali yuborilgan murojaatda qozikalonga Orenburg muftiysiga teng huquqlar berish masalasi ko‘tarilgan. M.G. Chernyayev rasmiy qaror bilan Toshkent qozikaloni lavozimiga ilgari shu vazifani bajargan shaxsni tasdiqlagan. Shayx-ul-islom lavozimi ham saqlanib qolgan bo‘lsa-da, keyinchalik K.P. Kaufman ushbu lavozimlarning ikkalasini ham bekor qilgan.

⁴ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shodmon-vohid-qoqon-xonligidagi-unvon-va-mansablar.html>

⁵ <https://bukhari.uz/?p=33622&lang=oz>

Qo‘qon xonligi davrida esa hokimlar va qozilar xon tomonidan tayinlanib, keng vakolat hamda imtiyozlarga ega bo‘lgan. Ibn Abdulg‘ofur “Zafarnoma-i Xudoyorxoniy” asarida mashhur qozilar haqida alohida ma‘lumot beradi. Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” asarida qozilarni yuksak martabali shaxslar sifatida ta‘riflaydi. “Kim qozi bo‘lsin?” risolasida ham bu lavozimga oid muhim mezonlar bayon etilgan. Rossiya hukmronligi davrida esa qozilar faoliyat yuritishda davom etgan bo‘lsa-da, ularning soni kamayib, avvalgi vakolat va imtiyozlari asta-sekin qisqartirilgan.

Tarixda muhim o‘rin egallagan qozilar ko‘plab bo‘lgan. Qo‘qon xonligida ular ko‘pincha xonning maxsus farmonlari asosida tayinlangan. Buni Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasida saqlanayotgan nodir qo‘lyozmalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, Muhammad Mallaxon tomonidan 1859-yilda domullo Muhammad Olimni qo‘shin muftiysi etib tayinlash haqidagi farmon bunga misol bo‘la oladi. Mazkur hujjatda yangi tayinlangan muftining vazifalari, huquqlari hamda unga ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan hurmat va e‘tibor aniq belgilab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston o‘lkasida mahalliy boshqaruv tizimining taraqqiyot yo‘li, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, tarixiy merosi, ularning g‘oyaviy yo‘nalishlari, qozilik mahkamalari notarial laboratoriyasini chuqur o‘rganish o‘zbek davlatchilik tarixi, xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlari o‘zbek xalqining huquqiy boshqaruvda milliy ruh aks etish manzarasini teran tasavvur etish imkonini beradi⁶.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov Kaxramon Sadikovich. XIX asr oxirgi - XX asr boshlarida Turkistonda imperiya huquqiy taksonomiyasining qozilar faoliyatiga fleksibillashuvi tarixidan [Matn]/ K.S.Karimov. – Namangan: “Vodiy Poligraf”, 2024. – 166 b.
2. V.Nalivkin. Kratkaya istoriya Kokandkago xanstva. Kazan Tipografiya Imperatorokago Universiteta, 1886.

⁶ Karimov Kaxramon Sadikovich. XIX asr oxirgi - XX asr boshlarida Turkistonda imperiya huquqiy taksonomiyasining qozilar faoliyatiga fleksibillashuvi tarixidan [Matn]/ K.S.Karimov. – Namangan: “Vodiy Poligraf”, 2024. 104-105-betlar.

3. A.F.Middendorf. Ocherki Ferganskoy doliny. Sankpeterburg. Tipografiya Imperatorski akademii nauk, 1882.
4. V.V. Bartold. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Leningrad. Izdatelstvo akademii nauk SSSR, 1927.
5. A.X.Saidov. Huquq metafizikasi, davlat huquqi, huquq va adabiyot. “Niso Poligraf”, T., 2016.
6. Gyote. Faust.-Toshkent “G‘afur G‘ulom”, 1985.
7. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati. “Sharq”, T., 2003

SUN’IY INTELLEKT ARXIV FONDINI QANDAY O‘QIYDI: METADATA AJRATISH, PREDMET KO‘RSATKICH ASOSIDA MAVZULARNI GURUHLASH VA TARIXIY KONTEKSTNI ANIQLASH MUAMMOLARI

Ruziboev Samandarbek Sobirjon o‘g‘li

“Yaqin va O‘rta Sharq hamda Afrika madaniy merosi” ta’lim dasturining

1-bosqich magistranti

Sapienza Rim Universiteti, Rim, Italiya

E-mail: roziboyevsamandar00@gmail.com

Telefon: +998 93 757 41 77

Shahar: Andijon, O‘zbekiston Respublikasi

ORCID: 0009-0003-7833-5759

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Andijon viloyat davlat arxivining R-90 fondi materiallari misolida sun’iy intellektning arxiv fondlari bilan ishlash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda metadata ajratish, predmet ko‘rsatkich asosida hujjatlarni tematik guruhlash hamda tarixiy kontekstni aniqlash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt arxiv hujjatlarini tavsiflash, tizimlashtirish va qidirish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi. Shu bilan birga, tarixiy terminologiya, mafkuraviy til va murakkab kontekstga ega